

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

Ro‘yxatga olindi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy
№ _____ va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2008 yil «___» _____ 2008 yil «___» _____ dagi
«___»- sonli buyruq bilan
tasdiqlangan

**TILI O‘RGANILAYOTGAN MAMLAKAT
(TURK) ADABIYOTI
fanining**

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200000 - Gumanitar fanlar va san’at
Ta’lim sohasi: 220000 - Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: 5220100 - Filologiya (sharq tillari)

Toshkent - 2008

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2008 yil «___» _____ dagi «___»- son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ishlab chiqildi.

T u z u v c h i:

Alimbekov A. – “Turkiyot” kafedrasining dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

T a q r i z c h i l a r:

Omonov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
“Turkiyot” kafedrasining mudiri v.b.,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Tilovov A. – O'zbekiston Milliy universiteti “Mumtoz
adabiyot tarixi” kafedrasining dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2008 yil _____dagi «___»- sonli bayonnoma)

Kirish

O'zbekistonda turk adabiyotining o'qitilishi tajribalari puxta o'rganilib ushbu tajribalardan kelib chiqqan holda turk adabiyoti fanidan talabalarga yanada chuqurroq ma'lumot berish, o'rganilayotgan predmet bo'yicha to'liq tasavvur hosil qilish uchun mazkur dastur asos bo'la oladi. O'quv dasturda turk xalq og'zaki ijodi o'rta asrlar adabiyoti, Tanzimot davri va hozirgi zamon turk adabiyoti to'liq qamrab olingan.

Dastur O'zbekiston oliy o'quv yurtlari uchun turk adabiyoti tarixi fanidan namunaviy dastur sifatida tuzildi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Kursning bosh maqsadi talabalarni tili o'rganilayotgan xalq adabiyotining eng eski namunalari, uning xalq og'zaki ijodi, mazkur adabiyotning sharq xalqlari adabiyoti tarixida tutgan o'rni, o'rganilayotgan adabiyotning tarixiy taraqqiyoti, taniqli adabiyot namoyandalari hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Shuningdek, o'rganilayotgan adabiyotning jahon madaniy hayotidagi o'rni va ahamiyati, o'rganilayotgan adabiyotdagi yirik badiiy asarlar bilan tanishtirishdir.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Turk adabiyoti” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini bilish; adabiy maktab va yo'nalishlar; badiiy adabiyotning ijtimoiy-madaniy hayotga ta'siri, badiiy adabiyotning vazifalarini ***bilishi kerak***;

- o'rganilayotgan adabiyotning jahon adabiyotidagi o'rni va uning bashariyat taraqqiyotidagi ulushi ***haqida tasavvurga ega bo'lishi***;

- o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti bo'yicha Sharq va g'arb tillarida olib borilayotgan izlanishlarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- turk adabiyoti namoyandalari asarlarini janr va uslubiy jihatdan farqlay olish; o'rganilayotgan mamlakat adabiyotini insonparvarlik kontekstida o'rganish ***malakasiga ega bo'lishi kerak***.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Turk adabiyoti” asosiy umumkasbiy fanlar qatorida turuvchi fan hisoblanib, 3 – 8- semestrlarda o'qitiladi.

Ushbu o'quv fanini o'zlashtirish uchun o'quv rejasida ko'zda tutilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O'zbekiston tarixi, g'arb tili, o'zbek tili), matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (geografiya, etnografiya), umumkasbiy (asosiy sharq tili, tilshunoslikka kirish, qo'shimcha sharq tili v.b.) va ixtisoslik fanlari (maxsus filologiyaga kirish, ASHT leksikologiyasi, ASHT nazariy grammatikasi, o'rganilayotgan mamlakat adabiyotidan maxsus kurs v.b.)dan yetarli bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Maktabgacha ta'lim muassasasi, o'rta umumta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida faoliyat olib borilganda turk adabiyoti kursidan olingan bilimlar qo'l keladi. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan hisoblanib, sharq filologiyasi bo'yicha bakalavr tayyorlash bosqichining ajralmas bo'g'inidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Ilmi toliblarning turk adabiyoti fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va yetakchi usullarini qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o'qitish jarayonida darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, dars yo'rug'lari, tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Tili o'rganilayotgan xalq adabiyotining eng eski namunalari, mazkur adabiyotning sharq xalqlari adabiyoti tarixida tutgan o'rni,

o'rganilayotgan adabiyotning tarixiy taraqqiyoti, taniqli adabiyot namoyandalarining hayoti va ijodi, o'rganilayotgan adabiyotning jahon madaniy hayotidagi o'rni, adabiy oqimlar, yo'nalishlar, adabiy turlar va janrlarning davrlararo taraqqiyoti, o'rganilayotgan adabiyotning boshqa adabiyotlar bilan munosabatlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar.

Turk folklori

Kursning maqsad va vazifasi. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi haqida. "Folklor" termini.

Jahon xalqlari og'zaki ijodida turkiy xalqlar og'zaki ijodining o'rni. Umummusulmon xalqlari va turkiy xalqlar mifologiyasi.

Turkiyada xalq og'zaki ijodini o'rganish. N. P. Baratov, Shukri Elchin kabi turk folklori tadqiqodchilari. Xalq dostonlari. "O'g'uznoma", "Kitobi dodam qo'rqu", "Karam va Aslixon" va boshqa qaxramonlik, ishqiy-romantik, tarixiy mavzudagi dostonlar. Xalq qo'shiqlari. Turku, mani, qo'shma ilohiy, sharqiylar. Xalq nasri va xalq ertaklari. Turk xalq maqol va matallari. Ularning janr va adabiy xususiyatlari. Turk xalq topishmoqlari. Topishmoqlarning tarbiyaviy ahamiyati. Latifalar. Xo'ja Nasriddin obrazi. Turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi (latifalardagi) obrazlar qiyosi. Turk xalq marosim qo'shiqlari.

Mumtoz turk adabiyoti

Kirish. Turk adabiyoti kursining predmeti va vazifalari. Taraqqiyot bosqichlari. O'rta asr adabiyoti.

Turk adabiyotining Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekistonda o'rganilishi.

O'g'uz qabilalarining Kichik Osiyoda joylashuvi. Turkiy qabilalarning og'zaki ijodi. Turk yozma adabiyotining vujudga kelishi.

Tasavvuf va adabiyot. Jaloliddin Rumi hayoti va ijodi.

XIII-XIV asr turk adabiyoti. Yunus-Emre hayoti va ijodi. Oshiq Posho «G'aribnoma» dostoni.

XV asr turk adabiyoti. Turkiyada adabiy muhit va madaniy hayot. Tarjimachilikning rivojlanishi.

Devon adabiyotining vujudga kelishi, xalq og'zaki ijodi janrlari xususida.

Nizomiy ijodining ta'siri. Ahmadiy, Shayxiy hayoti va ijodi.

Ahmad Poshsho ijodi.

Mehri Xotun, Iso Masihiy hayoti va ijodi. Turk adabiyotida «Shaharangiz».

Turk drammatik san'atining ilk manbai. «Qora ko'z», «Soya» xalq o'yinlari.

Ilyos Ravoniy, M. Boqiy ijodi. «texnik she'riyat haqida».

Turk adabiyotida «xamsachilik» an'anasining shakllanuvi.

Turkiyada ijtimoiy va madaniy hayot. Yusuf Nabi hayoti va ijodi. «Xayriya», «Xayrobod» dostonlari.

Aloviddin Sobit ijodi. Tomosha san'ati. «O'rta o'yini» teatri haqida.

XVIII asrda adabiy hayot. Turk adabiyoti tarixida «Lola davri» Ahmad Nodim ijodi.

Xalq dostonlari, qo'shiqlari. Shayx G'olib ijodi. «Husn va Ishq» dostoni.

Tanzimot davri turk adabiyoti

Tanzimot reformalarining xarakteri. 1830-1848 yillar Turkiyadagi muhit. Yangi usmonlilar harakati.

Ijtimoiy va ma'daniy hayot. Ilmiy jamiyatlar va yangi uslubdagi maktablarning paydo bo'lishi. Teatrning shakllanishi. I. Shinosi.

Tarjimashunoslik. Volter Russo, Monteske va boshqalar asarlarining tarjima qilinishi. «Tasviri Efkyar», «Tarjiman-i ahvol», «Hurriyat», «Muhbir» gazetalari faoliyati.

Turk ma'rifatparvarlarining publisistik faoliyati. A. Ziyo Poshsho hayoti va ijodi.

Drammaturgiyaning rivojlanishi. N. Kamol dramalari: «Jaloliddin Xorazmshoh», «Gulnihol» va b.

Turk ma'rifatparvarlarining o'ziga xosligi. Abdulhaq Homid Tarxon, Ahmad Midhat hayoti va ijodi.

Turk romanchilik maktabining vujudga kelishi. Tanzimot davri adabiyot janrlari.

Tanzimot davrida adabiy oqimlar. «Turkchilik», «usmonchilik», «islomchilik» harakatlari.

1908 yil inqilobigacha bo'lgan davr

«Sarvati funun» davri turk adabiyoti. Adabiy jurnallar. Bu davr dramaturgiyasi va publisistikasi.

Tovfiq Fikrat hayoti va ijodi. She'riyatida ijtimoiy mavzular.

Holid Ziyo Ushoqligil romanlari. Turk adabiyotida romantizm va realizm.

XX asr boshida turk hikoyachiligi. Yevropa madaniyatining turk adabiy muhitiga ta'siri.

1908-1923 yillar turk adabiyoti

Yosh turklar inqilobining mohiyati. 1908-1913 yillar turk adabiyotidagi turli adabiy oqimlar haqida, «Otayotgan tong» (Fejr-ati) adabiy to'garagi.

Ahpmad Hoshim, Mehmed Emin Yurdaqul, Mehmed Akif Ersoy hayoti va ijodi.

1908-23 turk prozasi. Rafiq Xolid Qaray ijodi.

Birinchi jahon urushi vaqtida Turkiyadagi adabiy muhit. Umar Sayfuddin, Ziyo Ko'kalp ijodi.

Jumhuriyat davri turk adabiyoti

20- yillarda she'riyat, nashr, adabiy tanqid. Holida Edip Adivar, Yoqub Qodriy ijodi.

Yahyo Kamol Bayotli, Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi. «Choliqushi», «Tamg'a», «Yashil kecha», «Tegirmon» romanlari.

30- yillar turk adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. «Rasmlı oy», «Vaqt» gazetaları faoliyati. R. Enis Aygen ijodi.

Sabohiddin Ali ijodi. «Kuyudjakli Yusuf», «Ichimizdagi shayton», «Kurk mantoli madonna» romanlari.

40- yillar turk adabiyoti. «Kun», «Tanglik», «Yangi daryo», «Markoposho» gazetalarining adabiy jarayondagi o'rni.

Nozim Hikmat hayoti va ijodi. N. Hikmat va o'zbek she'riyati. N. Hikmat romanlari. N. Hikmat dramalarida xalq og'zaki ijodidan foydalanish.

O'rxon Veli, O'qtoy Rifat Fozil Husnu Dag'larja she'riyati.

60- yillar turk adabiyoti. O'rxon Kamol, Yashar Kamol ijodi.

Turk adabiyotida satira. Aziz Nesin ijodi. A. Nesin va o'zbek adabiyoti. A. Nesin dramaturgiyasi.

80-90- yillar turk adabiyoti. Faqir Boyqurt romanlari. Adabiy oqimlar.

O'rxon Pamuq hayoti va ijodi.

Amaliy mashg'ulotlarni uyushtirish bo'yicha ko'rsatma va yo'llanmalar

Amaliy mashg'ulotlarda ilmi toliblar turk adabiyotining muhim qirralarini amaliy jihatdan o'rganishga e'tibor qaratadilar.

Amaliy darslarda ko'zda tutilgan mavzular:

1. Xalq og'zaki ijodi deganda nimani tushunamiz?
2. "Baxshi" deganda kimlarni nazarda tutamiz va baxshi qanday san'atçidir? (*Âşık deyiminin özel anlamı nedir ve âşık nasıl bir sanatçıdır?*). Turkiyada «baxshilik» an'anasi (*Türkiye'de âşıklık geleneği*).
3. Maqol va frazeologizmlar. Turkcha maqol va frazeologizmlarning o'ziga xosliklari, ularning o'zbek maqollari bilan o'xshash va farqli tomonlari. Maqol va frazeologizmlar tarjimasidagi muhim jihatlar. Turkiyadagi viloyatlarga xos maqol va iboralar (*Türkçe atasözleri ve deyimler. Bölge ağzlarında atasözleri ve deyimler*).
4. Turkiyada o'lim bilan bog'liq inonchlar va qabr toshlari (*Türkiye'de ölümle ilgili inançlar ve mezar taşları*).
5. Turk afsonalari (*Türk efsaneleri*).
6. Zile viloyatidan aytiladigan qaynona-kelin laparlari (*Zile'de söylenen gelin kaynana manileri*).
7. Turkiyada aytiladigan «yomg'ir duosi» e'tiqodi (*Türkiye'de yöresinde yağmur duası gelenekleri*).
8. Turk xalq o'yinlari (*Türk halk oyunları*).
9. Turk klassik shoirlari asarlarini o'qib tahlil qilish.
10. Tasavvuf va adabiyot mavzusida referat yozish. Klassik shoirlar ijodidagi tasavvufiy obrazlar analizi.
11. G'azallardan namunalar tahlili va badiiy san'atlarni o'rganish. Jaloliddin Rumi, Yunus Emre she'rlari tahlili.
12. Turk satirik she'rlaridan o'qib tarjima qilish.
13. M. Boqiy g'azallarini o'qib tahlil qilish.
14. Xalq dostonlaridan namunalar o'qish.
15. Xalq qo'shiqlaridan namunalar o'qib tahlil qilish.
16. Shoirlar hayoti va ijodiga oid ilmiy ma'ruzalar qilish.
17. Turk hikoyalaridan namuna o'qib tahlil qilish.
18. M. E. Yurdaqul, Ahmad Hoshim she'rlari tahlili.
19. Rashod Nuri Guntegin asarlaridan namunalar o'qish.

Amaliy darslarni uyushtirish bo'yicha kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va yo'llanmalar ishlab chiqiladi. Unda ilmi toliblar ma'ruza darslarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan boyitadilar. Shuningdek, darslik, o'quv qo'llanmalar, dars yo'rug'lari asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, ilmiy maqolalar va tezislar chop etish orqali talabalar ilmiy faolligini oshirish, mavzular bo'yicha ilmiy ma'ruzalar tayyorlash tavsiya etiladi.

Laboratoriya ishlarini uyushtirish bo'yicha ko'rsatmalar

Fanning o'quv dasturida laboratoriya mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

Kurs ishini uyushtirish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan o'quv rejasining 7- semestrda kurs ishlari ishini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Kurs ishlarining mavzulari:

1. "O'g'uznoma" dostonining turk xalq og'zaki ijodidagi o'rni.
2. "Kitobi dodam qo'rqu", "Karam va Aslixon" ishqiy-romantik, tarixiy mavzudagi dostonlar sifatida.
3. Turk xalq qo'shiqlari. Turku, mani, qo'shma ilohiy, sharqiylar.
4. Turk xalq ertaklari.
5. Turk xalq maqol va matallari.
6. Turk xalq topishmoqlari. Topishmoqlarning tarbiyaviy ahamiyati.
7. Latifalar. Xo'ja Nasriddin obrazi.
8. Tasavvuf va adabiyot. Jaloliddin Rumi hayoti va ijodi.
9. XIII-XIV asr turk adabiyoti. Yunus-Emre hayoti va ijodi.
10. Ahmadiy, Shayxiy hayoti va ijodi.
11. Ahmad Poshsho ijodi.
12. Mehri Xotun, Iso Masih hayoti va ijodi.
13. Turk adabiyotida «xamsachilik» an'anasining shakllanuv.
14. Yusuf Nabi hayoti va ijodi. «Xayriya», «Xayrobod» dostonlari.

15. Turk adabiyoti tarixida «Lola davri» Ahmad Nodim ijodi.
16. Xalq dostonlari, qo'shiqlari. Shayx G'olib ijodi. «Husn va Ishq» dostoni.
17. Tanzimot davri turk adabiyoti.
18. Tovfiq Fikrat hayoti va ijodi. She'riyatida ijtimoiy mavzular.
19. Holid Ziyo Ushoqligil romanlari. Turk adabiyotida romantizm va realizm.
20. Ahmad Hoshim, Mehmed Emin Yurdaql, Mehmed Akif Ersoy hayoti va ijodi.
21. Rafiq Xolid Qaray ijodi.
22. Umar Sayfuddin, Ziyo Ko'kalp ijodi.

Mustaqil topshiriqlarni uyushtirishning shakli va mazmuni

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko'rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari va dars yo'rug'laridan kurs mavzularini o'rganish;
- turk folkloriga tegishli mavzularni o'zlashtirish;
- turk adabiyoti tarixi bilan bog'liq asarlarni tahlil etish;
- hozirgi zamon turk adabiyoti vakillari va ularning ijodini bilish;

Mustaqil topshiriqlarning mavzulari:

1. Holida Edip Adivar, Yoqub Qodriy ijodi.
2. Yahyo Kamol Bayotli, Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi.
3. R. Enis Aygen ijodi.
4. Sabohiddin Ali ijodi.
5. Nozim Hikmat hayoti va ijodi.
6. O'rxon Veli, O'qtov Rifat Fozil Husnu Dag'larja she'riyati.
7. O'rxon Kamol, Yashar Kamol ijodi.
8. Aziz Nesin ijodi.
9. Faqir Boyqurt romanlari. Adabiy oqimlar.
10. O'rxon Pamuk hayoti va ijodi.

Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti

Ushbu fanni o'rgatish davomida o'qitishning zamonaviy usullari va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'zda tutilgan.

- Turk xalq ogʻzaki ijodiga tegishli mavzularni oʻzlashtirishda kompyuter texnologiyalari koʻmagida taqdimot va elektron-didaktik vositalar qoʻllaniladi;

- Turk mumtoz adabiyoti tarixi va u bilan bogʻliq masalalarni oʻtganda oʻqitishning yetakchi pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi;

- Hozirgi zamon turk adabiyoti toʻgʻrisidagi mavzularni oʻqitganda kompyuter texnologiyalari koʻmagida taqdimot va elektron-didaktik hamda oʻqitishning yangi pedagogik texnologiyalari qoʻllaniladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va oʻquv qoʻllanmalari

Asosiy darsliklar va oʻquv qoʻllanmalari

1. *Alimbekov A.* Turk adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. Toshkent, 1990.

2. *Alimbekov A.* Ishq asari boʻlgan jon. Toshkent, 1996.

3. *Alimbekov A.* Tanzimot davri turk adabiyoti. Maʼruzalar matni. Toshkent 2002.

4. *Alimbekov A.* XX asr turk nasri taraqqiyoti maʼruzalar matni. Toshkent 2001.

5. *Alimbekov A.* Turk adabiyoti tarixi (XIII-XVIII asrlar). Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 2005.

6. *Ahmad Hamdi Tanpinar.* XIX asr turk adabiyoti. Istanbul, 1988.

7. *Ahmad Qaboqli.* Turk adabiyoti. I-V jild. Istanbul, 1997.

8. *Banarli N. S.* Rasmlı turk adabiyoti tarixi. 1-2 jild, Istanbul, 2001.

9. *Shabanov J.* Turk adabiyotidan namunalar. Toshkent, 1995.

10. *Literatura Vostoka v srednie veka.* (Tureskaya literatura). M., 1970.

11. *Literatura Vostoka v novoe vremya.* (Literatura Tursii). M., 1976.

12. *Literatura Vostoka v noveyshee vremya.* (Literatura Tursii). M., 1977.

Qoʻshimcha adabiyotlar

1. *Garbuzova V. O.* Turk adabiyoti klassiklari. Toshkent, 1960.

2. *Aziz Nesin.* Musht ketdi. Toshkent, 1963.

3. *Nozim Hikmat*. She'rlar, poema, p'esa. Toshkent, 1955.
4. *Nozim Hikmat*. Bir sevgi afsonasi. Toshkent, 1955.
5. *Nozim Hikmat*. 65 she'r. Toshkent, 1962.
6. *Nozim Hikmat*. Surur. Toshkent, 1966.
7. *Nozim Hikmat*. Oshiq bulut. Toshkent, 1977.
8. *Nozim Hikmat*. Inson manzaralari. Toshkent, 1982.
9. Osiyo Ovozi. Sharq mamlakatlari yozuvchilari hikoyalari. Toshkent, 1981.
10. *Rashod Nuri Guntekin*. Choliqushi. Toshkent, 1971.
11. *Rashod Nuri Guntekin*. Tamg'a. Toshkent, 1977.
- Rashod Nuri Guntekin*. Yashil kecha. Toshkent, 1977.